


**TOSHKENT VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-dekabr)


Viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 17428,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1681,3 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 13932,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1815,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,9 %) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Nurafshon, Ohangaron va Angren shaharlari hamda Bekobod tumanida qayd etildi.

Jami viloyat chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi (%)



Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning o'sish sur'atlari





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019 yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga o'sdi va 1681,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 15747,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil
yanvar-dekabr

2019 yil
yanvar-dekabr



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Oqqo'rg'on tumani (98,5 %), Nurafshon shahri (98,6 %), Yangiyo'l shahri (96,5 %), Bo'stonliq tumani (94,5 %), Parkent tumani (96,1 %) va Pskent (96,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (26,8 %), Bekobod shahri (20,6 %), Toshkent tumani (18,7 %), Ohangaron shahri (17,3 %), Qibray tumani (11,3 %), O'rtachirchiq tumani (11,2 %), Chirchiq shahri (11,3 %) va Yuqorichirchiq (10,1%) tumanlarida kuzatilgan.


**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1681261,2	87,1	15747392,5	109,9
Nurafshon sh.	7888,1	741,9	557481,3	127,4
Olmaliq sh.	221729,9	107,3	1413964,7	108,7
Angren sh.	58236,2	119,9	847839,4	110,0
Bekobod sh.	201407,5	120,2	775625,1	102,6
Ohangaron sh.	59042,2	93,8	282631,9	112,5
Chirchiq sh.	111458,5	59,2	874096,9	117,1
Yangiyo`l sh.	30289,4	102,2	823850,6	105,7
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	10373,6	88,9	686447,9	108,1
Ohangaron	34030,8	522,3	251132,6	105,4
Bekobod	34181,6	480,5	381673,1	101,8
Bo`stonliq	42729,7	71,1	730458,5	108,8
Bo`ka	22500,5	85,4	535244,3	105,3
Quyichirchiq	4536,5	75,8	362999,7	105,0
Zangiota	103693,0	95,3	2022320,7	107,0
Yuqorichirchiq	64525,5	46,1	575394,8	125,1
Qibray	122636,7	70,7	967296,5	114,0
Parkent	25104,1	98,8	622999,2	107,8
Piskent	14195,5	90,1	425477,4	104,9
O`rtachirchiq	45086,8	83,1	356056,1	108,6
Chinoz	246513,4	68,3	672604,2	127,5
Yangiyo`l	32617,0	90,5	760849,6	105,2
Toshkent	188484,7	97,9	820948,0	109,8

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	5968,9	105,8
Nurafshon sh.	11657,1	127,3
Olmalik sh.	12572,6	107,0
Angren sh.	4842,7	109,3
Bekobod sh.	10284,6	104,3
Ohangaron sh.	2183,2	107,9
Chirchiq sh.	26351,7	103,5
Yangiyo‘l sh.	14235,7	104,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	6687,3	106,1
Ohangaron	3001,7	115,0
Bekobod	2664,0	107,2
Bo‘stonliq	4599,6	104,6
Bo‘ka	4476,3	102,7
Quyichirchiq	3434,9	103,0
Zangiota	10841,5	105,2
Yuqorichirchiq	4772,0	104,9
Qibray	5477,1	105,2
Parkent	4224,9	105,5
Piskent	4396,7	103,0
O‘rtachirchiq	2710,4	103,2
Chinoz	6936,7	101,9
Yangiyo‘l	3809,2	102,9
Toshkent	5642,4	105,9

2019 yil yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 5968,9 ming so'mni tashkil qilib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 5,8% ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Chirchiq (26351,7 ming.so'm), Yangiyo'l (14235,7 ming.so'm), Olmaliq (12572,6 ming.so'm), Nurafshon (11657,1 ming.so'm), Bekobod (10284,6 ming.so'm) shaharlari va Zangiota tumani (10841,5 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.





Jumladan, 2019 yilning yanvar- dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 % ni tashkil etib, 466,3 mlrd. soʻmga yetdi yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 8,6 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 77,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.


TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-dekabr)

2019 yil boshidan viloyat boʻyicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 7260,9 mlrd. soʻmni tashkil qilib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,2 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga toʻgʻri kelidi, mazkur hajm 2019 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga koʻra, 4102,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 6,7 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,5 %ni tashkil qilmoqda.

**Yirik va kichik korxonalar
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi 43,5 % ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo'lgan Ohangaron shahri (100,0%), Angren (99,8 %) shahrida va Yangiyo'l (99,8%) tumanida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so‘m)	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxo- nalar (mlrd. so‘m)	2018 yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	7260,9	97,8	4102,2	93,3	3158,7	104,4
Nurafshon sh.	34,9	101,6	0,1	28,3	34,8	102,3
Olmaliq sh.	151,3	81,9	35,7	49,3	115,6	102,9
Angren sh.	52,4	103,0	0,1	24,8	52,3	103,6
Bekobod sh.	73,3	101,4	0,3	13,1	73,1	103,8
Ohangaron sh.	45,7	102,8	0		45,7	102,8
Chirchiq sh.	148,7	102,2	11,7	79,0	137,0	104,9
Yangiyo‘l sh.	195,2	89,3	0,4	1,2	194,8	105,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo‘rg‘on	6,3	99,5	0	16,3	6,3	101,6
Ohangaron	44,8	102,1	0,3	45,9	44,5	103,0
Bekobod	84,3	110,0	61,7	114,6	22,6	99,2
Bo‘stonliq	75,3	101,5	0,8	58,4	74,5	102,4
Bo‘ka	34,1	102,0	0	45,8	34,1	102,1
Quyichirchiq	26,9	101,4	0,2	62,3	26,7	101,9
Zangiota	762,4	97,1	32,5	41,8	729,9	103,1
Yuqorichirchiq	128,5	111,4	11,7	847,5	116,8	102,5
Qibray	1971,2	109,0	1664,3	110,0	306,9	104,2
Parkent	111,2	105,4	0,8	671,4	110,5	104,8
Piskent	58,3	151,2	0,1	13,1	58,2	153,3
O‘rtachirchiq	1754,4	85,1	1711,0	84,3	43,4	132,8
Chinoz	607,7	98,0	548,3	97,6	59,4	101,9
Yangiyo‘l	191,1	105,8	0,2	44,6	190,8	106,0
Toshkent	702,9	101,2	22,1	70,6	680,9	102,7

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
2018 yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida 2018 yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Olmaliq shahrida (81,9 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**